

**XALQARO AMALLIYOTDA SOLIQQA TORTISHNING SHEDULYAR
TIZIMINING MOHIYATI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**СУЩНОСТЬ И ОСОБЕННОСТИ ШЕДУЛЯРНОЙ СИСТЕМЫ
НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ В МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКЕ**

**THE ESSENCE AND FEATURES OF THE SCHEDULING TAX SYSTEM
IN INTERNATIONAL PRACTICE**

Alimov Ilhomjon Ikromovich

Fan va texnologiyalar universiteti.

“Moliya va moliyaviy texnologiyalar”

kafedrasi professor v.b , i.f.n.,

Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich

Fan va texnologiyalar universiteti.

“Moliya va moliyaviy texnologiyalar”

kafedrasi o'qituvchisi.

Алимов Ильхомжон Икромович

Университет науки и технологий. И.о. профессор кафедры

“Финансы и финансовые технологии” к.э.н.

Рахманқулов Темирбек Эшмаматович

Университет науки и технологий. Преподаватель кафедры

“Финансы и финансовые технологии”

Alimov Ilhomjon Ikromovich

Ph.D. Associate Professor the Department of

“Finance and financial technology ”

University of science and technologies

Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich

Senior teacher the Department of “Finance and financial technology ”

University of science and technologies

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada xalqaro amaliyotda soliqqa tortishni shedulyar tizimining mohiyati va uning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan. Maqolada mamlakatimiz soliq tizimiga soliqqa tortishning shedulyar tizimining ayrim elementlarin joriy etish yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Калит сўзлар: Soliqlar, soliqqa tortish, ish haqi, ko‘chmas multk, dividend, moliya bozori.

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассматривается сущность и особенность шедулярной системы налогообложения в международной практике. В статье разработаны практические рекомендации по внедрению некоторых элементов шедулярной системы налогообложения в нашей стране.

Ключевые слова: Налоги, налогообложение, заработка плата, недвижимое имущество, дивиденд, финансовый рынок.

ABSTRACT. This article examines the essence and features of the schedular taxation system in international practice. The article develops practical recommendations for the implementation of some elements of the schedular taxation system in our country.

Key words: Taxes, taxation, wages, real estate, dividend, financial market.

Kirish (Введение / Introduction)

O‘zbekiston Respublikasida oxirgi yillar davomida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarga soliq tizimidagi ayrim muammolar o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatib kelayotgan edi. Ushbu salbiy holatni bartaraf etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag‘i "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-4947-sonli farmonida soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddallashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma’muriyatichilagini takomillashtirish va tegishli rag‘batlantiruvchi choralarni kengaytirish ko‘zda tutilgan.[1] Mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun soliq yukini izchillik bilan kamaytirish va qulay shart-sharoitlarni yaratishni ta’minlaydigan soliq tizimi shakllantirilgan edi. Shu bilan birga, soliq ma’muriyatichiliq sohasida, shu jumladan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarini yig‘ish, soliq solinadigan bazani kengaytirish va soliq to‘lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirishda muayyan muammolarning mavjudligi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi dasturlarini moliyalashtirishning barqaror manbalarini ta’minlashga salbiy ta’sir ko‘rsatib kelmoqda edi. Mazkur kamchiliklarni ijobiy hal etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldag‘i "Soliq ma’muriyatichilagini tubdan takomillashtirish, soliqlar

va boshqa majburiy to‘lovlarining yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5116-sonli farmonida soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma‘muriyatichilagini takomillashtirish va tegishli rag‘batlantiruvchi choralarни kengaytirish ko‘zda tutilgan.[2] O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 30 dekabrda qabul qilingan yangi taxrirdagi “O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi”ga muvofiq amaldagi soliq tizimiga ko‘plab yangiliklar amaliyotga joriy etilmoqda. Jumladan, avval amal qilgan 13 ta soliqlar unifikatsiya qilinib, ularning turlari 13 tadan 9 taga kamaytirildi. Soliqlarni to‘lash muddatini uzaytirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lashga ruxsat berish bo‘yicha yengillashtirilgan mexanizmlar kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev mamlakatimizdagи soliq siyosatiga o‘zining diqqat-e’tiborini qaratib “To‘rtinchidan, fuqarolarimiz soliqdan qochish emas, uni vaqtida to‘lashdan manfaatdor bo‘lishi kerak. 2019 yildan boshlab joriy etilayotgan yangi soliq konsepsiyasining eng asosiy g‘oyasi soliq yukini kamaytirish, sodda va barqaror soliq tizimini qo‘llashni ko‘zda tutadi. Shu orqali iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish, tadbirkor va investorlar uchun har tomonlama qulay muhit yaratishga erishish mumkin. Afsuski, yalpi ichki mahsulotda “yashirin” iqtisodiyotning ulushi katta bo‘lib, bu mamlakat rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Soliq yukini kamaytirish, biznes yuritish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish “yashirin” iqtisodiyotga barham berishning yagona yo‘lidir. Shuning uchun bu borada ta’sirchan choralarни nazarda tutadigan alohida dastur ishlab chiqishimiz zarur”¹[3] deb alohida ta’kidlagan. Keyingi yillarda qo‘shti mamlakatimizda fuqarolarning ayrim toifalari uchun “hashamat uchun soliq” joriy qilish bo‘yicha amaliy ishlar olib borilmoqda. Respublikamizda ham fuqarolarning ayrim toifalarining daromadlarini soliqqa tortish mexanizmiga o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan takliflar kiritilgan. Mamlakatimizda soliqlar va soliqqa tortish muammosini o‘rganish bilan birga, iqtisodiyoti taraqqiy topgan va rivojlanayotgan mamlakatlarning soliq tizimidagi salbiy holatlarning yuzaga chiqish sabablarini tahlil etish hamda ularda soliq tizimidagi kamchiliklarni

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi.-T: “O‘zbekiston”. 2019.

bartaraf etish bo‘yicha amalga oshirayotgan chora-tadbirlarni o‘rganish, bizga, ushbu sohada kelajakda yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xatolarni oldini olish imkoniyatini yaratadi.

Adabiyotlar sharhi (Обзор литературы/Literature review)

Xalqaro amaliyotda iqtisodiy adabiyotlarda yetakchi iqtisodchi olimlar xar bir davlatning byudjet tizimining asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan soliqlarning mohiyati, ularning xususiyatlari, ularni tartibga solish hamda boshqarish muammolariga katta e’tibor qaratib kelishgan va hozirda ham e’tibor bermoqdalar. Xalqaro amaliyotda iqtisodiy ta’limotda Angliyalik buyuk shotland iqtisodchisi Adam Smit (1723-1790 yy) alohida o‘rin tutadi. [4] Xorijiy iqtisodchilardan Deborax Schanz [5], Rossiyalik yetuk iqtisodchilar iqtisodiyot fanlari doktori, akademik D.G.Chernik [6] va iqtisodiyot fanlari doktori, professor N.V. Milyakovlarning [7] ilmiy izlanishlarida soliqlar va soliqqa tortishning mohiyati va uning xususiyatlari keng ochib berilgan. O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar iqtisodiyot fanlari doktorlari, professorlar A.Vaxobov, A.Jo‘raev [8], T.S. Malikov, P.Jalilovlarning [9] ilmiy izlanishlarida O‘zbekistonda soliqlarning mohiyati, turlari, soliqqa tortish tamoyillarining mohiyati va uning xususiyatlari yoritib berilgan.

Adam Smit 1776 yilda “Xalqlar boyligining tabiatini va sabablari to‘g‘risidagi izlanishlar” (“*Issledovanie o prirode i prichinax bogatstva narodov*”) deb nomlangan kitobini chop etdi. Olim aynan mazkur kitobda u mehnat unumdarligi va unumsiz bo‘lgan mehnat unumdarligiga asosan davlat moliyasining mohiyati bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqdi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, mazkur kitob Adam Smitga “iqtisodiyot otasi” yoki “moliya fanining asoschisi” degan unvonini berdi. Siyosiy iqtisodning klassik maktabining asoschisi hisoblangan Adam Smitning asosiy g‘oyasi millatning boyligi milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida (fiziokratlar tomonidan ilgari surilgan faqatgina qishloq xo‘jaligida emas) unumli mehnat unumdarligi orqali yaratiladi. Adam Smit moddiy ishlab chiqarishning istalgan sohasiga solingan kapitalni unumli kapital deb hisoblagan. Kapitalni dehqonchilikda qo‘llanish masalasida u mehnatgina emas, balki yerning

o‘zi, tabiat ham qiymat yaratadi deb ta’kidlagan. Jamiyatning barcha a’zolari o‘zlariga tegishli daromadlarini yaratilgan milliy boylikka qo‘sghan hissasiga qarab oladi. Shuning uchun millatlar boyligi jamiyatda unumli mehnat unumdorligini oshirish orqali yaratiladi va ortib boradi.

Adam Smit o‘z asarida soliqlar nazariyasiga juda katta e’tibor bergan. Soliqlar to‘g‘risida uning “dunyoda inson ikki narsadan, birinchisi o‘limdan va ikkinchisi soliqdan qochib qutula olmaydi” degan dunyoqarashini dunyoning barcha iqtisodchilari yaxshi bilishadi. Lekin shunga qaramay A.Smit o‘z asarida soliqqa tortishni tashkil etishda to‘rtta asosiy tamoyillarni ishlab chiqqan:

- soliqlar fuqarolarning qobiliyatlari va moliyaviy ahvoliga asosan to‘lanishi lozim;
- soliqlarning miqdorlari va ularning to‘lash muddatlari aniq belgilangan bo‘lishi kerak;
- soliqlarni undirish muddatlari soliq to‘lovchilar uchun qulay bo‘lishi kerak;
- soliqlarni undirishda minimal xarajatlar ta’milanishi lozim.

Adam Smit ilk bor soliqqa tortish tamoyillarini ko‘rsatib berdi, soliqlarni ahamiyatini yoritib, ularni davlatga to‘lash qullik emas, balki erkinlik alomati ekanligini asoslab berdi.[4] U jamiyatda amal qilayotgan soliqlarni (bilvosita, bevosita va ish xaqiga daromad soliqlari) jamiyatning iqtisodiy o‘sishiga ta’siri nuqtai nazaridan tahlil etgan hamda ularga baho bergan.

Tadqiqot metodologiyasi (Методы/Methods)

Tadqiqot olib borish va natijalarini asoslash maqsadida mantiqiy mushohada, adabiyotlarni tanqidiy o‘rganish, taqqoslash, tizimli tahlil va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi. Maqolaning uslubiy asosi sifatida xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning adabiyotlari va maqolalari tahlil etilgan. Xozirda mamlakatimizda soliq tizimida olib borilayotgan faoliyatlarni tahlil etishda O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo‘mitasining rasmiy saytidagi ma’lumotlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi (Анализ и результаты/Analysis and results)

Soliq tizimining dolzarbliji, avvalo, uni tashkil etadigan va boshqaradigan davlat tuzilmalariga bog'liq. Soliq davlatning o'z maqsad va vazifalarini bajarish uchun foydalanadigan iqtisodiy quroldir, demak soliqning mohiyati va vazifalarini aniqlashda davlat faoliyatidan kelib chiqish lozimdir. Xalqaro amaliyotda soliq yoki boshqa majburiy to'lov mamlakatdagi soliq to'g'risidagi qonun xujjatlarida soliq to'lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar), shuningdek ushbu soliq yoki boshqa majburiy to'lovni xisoblab chiqarish va to'lash uchun zarur elementlar qonunan belgilab qo'yilgan taqdirdagina belgilangan deb xisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida soliq to'lovchilar va soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish va to'lashlari uchun zarur elementlar belgilab qo'yilgan. Mamlakatimizda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlarini quyidagi rasmda keltiramiz.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari

Soliq solish ob'ekti

Soliq solinadigan baza

Soliq stavkalari

Soliqlarni hisoblab chiqarish tartibi

Soliq davri

Soliq xisobotini taqdim etish tartibi

Soliq bo'yicha imtiyozlar

Soliqlarni to'lash tartibi

1-rasm. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari tarkibi²

Soliq kodeksida soliq yoki boshqa majburiy to'lov belgilanayotganda soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida soliq imtiyozlari, shuningdek, ularning soliq to'lovchi tomonidan qo'llanilishi uchun asoslar nazarda tutilgan. Amaldagi qonunchilikka asosan soliq to'lovchilar, soliqlar va boshqa majburiy to'lovchilarning elementlari har bir soliq yoki boshqa majburiy to'lovga tatbiqan belgilanadi.

² Расм муаллиф томонидан тайёрланган

Soliqlar va amaldagi boshqa majburiy to‘lovlarni elementlariga quyidagilar kiradi:

1. Soliq solish ob’ekti. Soliq solish ob’ekti soliq to‘lovchida soliq yoki boshqa majburiy to‘lov hisoblab chiqarilishi va to‘lanishi yuzasidan majburiyat keltirib chiqaruvchi mol-mulk, harakat va xarajat natijasidir;
2. Soliq solinadigan baza. Soliq solinadigan baza soliq solish ob’ektining soliq yoki boshqa majburiy to‘loving stavkasi tatbiqan belgilangan ko‘rsatkichlardagi qiymat, miqdor, fizik va boshqa tavsiflarini o‘zida ifodalaydi. Masalan, soliq solish ob’ekti yer bo‘lsa soliq solish bazasi gettar (sotix) hisoblanadi;
3. Soliq stavkasi. Soliq stavkasi soliq solinadigan bazaning o‘lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdorni ifodalaydi;
4. Soliqlarni hisoblab chiqarish tartibi. Soliq va boshqa majburiy to‘lovni hisoblab chiqarish tartibi soliq davri uchun soliq solinadigan bazadan, stavkadan, shuningdek imtiyozlar mavjud bo‘lsa, shu imtiyozlardan kelib chiqib, soliq va boshqa majburiy to‘lov summasini hisoblash qoidalarini belgilaydi. Soliq va boshqa majburiy to‘lov summasini hisoblab chiqarish soliq to‘lovchi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi.
5. Soliq davri. Soliq davri u tugaganidan keyin soliq solinadigan baza aniqlanadigan hamda soliq yoki boshqa majburiy to‘lov summa hisoblab chiqariladigan davrdir. Soliq davri bir necha hisobot davriga bo‘linishi mumkin bo‘lib, ularning yakunlari bo‘yicha hisob-kitoblarni taqdim etish hamda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘lanishi lozim bo‘lgan summalarini to‘lash majburiyati yuzaga keladi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, dunyodagi ko‘plab mamlakatlarda, byudjet-soliq davri turlicha. Masalan GFR, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Rossiya, shu jumladan O‘zbekistonda byudjet-soliq davri kadendar yiliga mos keladi, ya’ni 1 yanvardan boshlanib 31 dekabrda tugaydi. Buyuk Britaniya, Yaponiya, Kanadada byudjet-soliq davri 1 apreldan boshlanib 31 martda tugaydi. Shvesiya,

Norvegiyada esa 1 iyuldan boshlanib, 30 iyunda tugaydi. AQShda esa byudjet-soliq davri 1 oktyabrdan boshlanib 30 sentyabrda tugaydi. Ushbu holat eng avvalo, har bir mamlakatdagi tarixiy sabablar, an'analar va eng asosiysi ulardan qonun chiqaruvchi organlarning sessiyalarini chiqarish muddatlari bilan bevosita bog'liqdir.

Dunyoning barcha davlatlarida qonunchiligidagi soliq to'lovchilarining majburiyatları qonunan belgilab qo'yilgan. Ularning eng asosiysi bo'lib, bu soliq to'lovchilar tomonidan o'z soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarishi hisoblanadi. Fuqarolarni daromadlarini soliqqa tortishning shakllaridan biri bo'lib soliqqa tortishning shedulyar tizimi hisoblanadi. Soliqqa tortishning shedulyar tizimi bu fuqarolar tomonidan daromadlarining manbalariga asosan daromad solig'ini bo'lib-bo'lib ("shedula") to'lashlik hisoblanadi.

Soliqqa tortishning shedulyar tizimi XIX asrning o'rtalarida Buyuk Britaniyada 1973 yilgacha amal qilgan daromadlarni soliqqa tortishni takomillashuvi natijasida yuzaga keldi. Soliqqa tortishning shedulyar tizimining mohiyati soliq to'lovchi fuqarolarning barcha daromadlari topilgan manbaiga asosan qismlarga ("shedula") ajratiladi va har bir qismga ajratilgan daromad yakka tartibda daromad solig'iga tortiladi. Buyuk Britaniya soliq qonunchiligiga asosan soliq to'lovchi fuqarolarning barcha daromadlari asosan 5 (beshta) shedulaga ajratilgan va ular o'zlarining boshlang'ich xarflari lotin alfaviti bo'yicha belgilangan. Quyida biz shedullarning nomlanishini keltiramiz:

A – ko'chmas mulkdan keladigan daromadlar;

V – o'rmonlardan tijorat maqsadida foydalanganlik uchun olingan daromadlar;

S – davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha olingan daromadlar;

D – savdo va sanoatdan foyda, erkin kasb-hunardan daromad, chet ellardan olingan foyda;

Ye – mehnatdan olingan foyda, ish haqi, pensiyalar.[5]

1973 yilda Buyuk Britaniya Umumiy Bozorga a'zo bo'lib kirdi. Yevropa Iqtisodiy Ittifoqining talablariga asosan Buyuk Britaniya boshqa a'zo mamlakatlardagi mavjud soliq tizimga moslashuvni amalga oshirish maqsadida soliqqa tortishning global tizimiga o'tishni boshladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Buyuk Britaniya 1973 yildan keyin ham mavjud shedula tizimini saqlab qolgan holda, unga bir qator soliqlar bo'yicha chegirmalarni joriy etdi. Buning natijasida, Buyuk Britaniyada fuqarolarning daromadlarini soliqqa tortishda shedulyar-global tizimi shakllandi. Ushbu tizimga asosan, fuqarolarning daromadlari avval manbailariga asosan shedula asosida soliqqa tortiladi va so'ngra global soliqqa tortish maqsadida umumlashtiriladi. 1976 yilda Buyuk Britaniyada soliqqa tortishning shedulyar tizimida, yangi shedula, ya'ni F kiritiladi. Ushbu shedula asosida Britaniya kompaniyalaridan olingan dividendlar soliqqa tortiladigan bo'ldi. Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarning talabiga asosan, 1988 yilda tizimda V- shedula va 1997 yilda S shedula bekor qilindi. Buning natijasida fuqarolarning V va S shedula asosida oladigan daromadlari qolgan boshqa shedulalar tarkibiga kiritildi. Lekin Buyuk Britaniya 2021 yildan boshlab Yevropa Ittifoqidan chiqdi va o'z hududida soliqqa tortishning shedulyar tizimini qayta tiklamoqda.

Hozirgi vaqtida, soliqqa tortishning shedulyar tizimi Angliya va avval unga vassal bo'lган mamlakatlar Shotlandiya, Uels va Shimoliy Irlandiyada saqlanib qolgan. Ushbu tizimning ayrim elementlari dunyodagi taraqqiy topgan mamlakatlarida (Fransiya, Germaniya va boshqalar) ham fuqarolarning daromadlarini soliqqa tortishda keng qo'llanilmoqda. Soliqqa tortishni shedulyar tizimning ayrim elementlari O'zbekiston uchun ham xosdir. Masalan, keyingi yillarda, mamlakatimiz fuqarolari daromadlari bo'yicha yillik deklaratsiyalarini to'ldirishlarida o'zlarining ish haqi, mukofatlardan tashqari, o'zlariga tegishli uy-joylarini, avtomashinalarni ijara qilingan daromadlarini va boshqa daromadlarini ham hisobga olishlari belgilab qo'yilgan.

Xulosa va takliflar (Заключение/Conclusion)

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, insoniyatga soliq nazariyalarning daholari hisoblanadigan Adam Smit va David Rikardolarni yetishtirib bergen Angliyada fuqarolarni daromadlarini soliqqa tortish tizimi juda yuksak darajada va ipidan-ignasigacha tashkil etilgan. Tadqiqotlar shundan daloalt beradiki, Buyuk Britaniyada soliqqa tortishni shedulyar tizimining bexato faoliyat yuritishining asosi bo‘lib aholining soliq savodxonligini yuqori darajada ekanligi hisoblanadi. Agarda biz bu holatni O‘zbekistonga taqqolasak bu sohadagi o‘z yechimini kutayotgan ko‘plab muammolar borligini guvohi bo‘lamiz. Mamlakatimizda aholi farovonligini oshirishni ta’minlash maqsadida ularga bir qator soliq imtiyozlari berilgan va ular hozirda ham saqlab qolingan. Buning natijasida, respublikamizda aholi turmush darajasini o‘sishiga erishilmoqda. Milliy iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish, tadbirkor va investorlar uchun har tomonlama qulay muhit yaratish maqsadida ularga keng miqyosda soliq imtiyozlari berilgan. Lekin so‘nggi yillarda respublikamizda aholini “soliqdan qochish” holatlari ko‘p kuzatilmoqda. O‘zbekistonda fuqarolar va tadbirkorlar o‘rtasida o‘z faoliyatiga tegishli bo‘lmagan soliq imtiyozlaridan o‘z maqsadlari uchun foydalanish orqali soliqdan qochish holatlari tez-tez uchrab turibdi.

Bizning fikrimizcha, mamlakatimizda soliqdan qochish holatlarini oldini olish maqsadida mutassadi tashkilotlar tomonidan aholini moliya-soliq savodxonligini oshirish bo‘yicha keng qamrovli va maqsadli ishlarni olib borish lozim. Respublikamidagi ommaviy axborot vositalari yordamida soliqlarning mohiyati, ularni to‘lash tartiblari, soliq imtiyozlari, to‘lanmagan soliqlar bo‘yicha javobgarliklar to‘g‘risida qisqa, sodda va tushunarli kliplarni aholining keng qatlamiga targ‘ibotni amalga oshirish lozim. Ushbu yo‘nalishda nafaqat moliya-soliq organlari balki oliy o‘quv muassasalari, savdo-sanoat palatasi, tadbirkor ayollar uyushmasi kabi manfaatdor tomonlarni o‘zaro hamkorlikda ishlashi

orqaligina aholining keng qatlamini moliya-soliq savodxonligini oshirishga erishish mumkin bo‘ladi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литература/References)

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag‘i "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4926736>

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldag‘i "Soliq ma’muriyatçiligin tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-5116-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4926736>

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi.-T: "O‘zbekiston". 2019.

4. Смит А. Исследование о природе и причинах богаства народов. Пер. с англ - М: ЭКСМО. 2007.

5.Deborah Schanz, Sebastian Schanz. Business Taxation and Financial Decisions (Germany), Springer. 2011.

6.Черник Д.Г. Налоги и налогообложение. Учебник. –М.: “МЦФЭР”, 2017.

7. Миляков Н.В. Налоги и налогообложение. Учебник. –М.: “Инфра-М”, 2019.

8.Vahobov AV., Jo’raev A.S Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –Т.: “Sharq”, 2019.

9.Malikov T.C., Jalilov P. Budget-soliq siyosati. O’quv qo’llanma. –Т.: “Akademnashr”, 2011.